

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

N°	Universitet nomi	QS	THE	O'quv dasturidagi mavzu nomi	Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar	Havolalar
1	Gadjah Mada University	224	1200	Introduction to the science of fruit crops 1-mavzu: Mevali ekinlar faniga kirish	Mevali ekinlar — bu odamlar uchun oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadigan mevalarni hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklardir. Ular asosan daraxt, buta yoki yarim buta shaklida bo'ladi.	https://drive.google.com/file/d/1TeLO2q33gm5ew7zcm1JJP_5Q3n4zpWXY/view
2	Michigan State University	161	122	Pruning fruit trees and shrubs 7-mavzu: Mevali daraxt va butalarni kesish.	Meva daraxtlari qishki va yozgi kesish mavsumida daraxtlarning ko'p shoxlarini kesish orqali keyingi yilda ko'plab yangi va yosh novdalar rivojlanadi, urug'li mevalilarda o'suvchi novdalar, danakli mevalilarda esa hosil beruvchi novdalar rivojlanadi	https://www.canr.msu.edu/foundations-of-gardening/uploads/files/Final%20Syllabus%20with%20header-WEBSITE%20VERSION.pdf
3	University of Florida	285	130	Greenhouse and protected agriculture tasks. 15-mavzu: Issiqxona va himoyalangan qishloq xo'jaligi vazifalari.	Issiqxona — bu shisha, polikarbonat yoki plastikdan yasalgan yopiq inshoot bo'lib, ichki harorat, yorug'lik, namlik kabi omillar sun'iy ravishda boshqariladi. Ular sabzavotlar (pomidor, bodring, qalampir), ko'chatlar, gullar va boshqa o'simliklar yetishtirishda ishlatiladi.	https://hos.ifas.ufl.edu/media/hos/files/protectedagriculture/vegetable-gardening-(Fall-F2F).pdf

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



MEVACHILIK VA SABZAVOTCHILIK
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800 000	– Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810 000	– Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishlari:	60810400	– Agronomiya
	60810700	– Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi

Fan/modul kodi MEV/SABB1308	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	Kreditlar 4-4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Mevachilik va sabzavotchilik	96	144
2.	Jami yuklama (soat)		240
<p>1. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga meva-sabzavot ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, bu sohaning hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi to'g'risidagi va yangi kirib kelgan meva-sabzavot navlarini ko'paytirishni o'rgatish.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi – meva-sabzavot yetishtirishning ilg'or texnologiyalari to'g'risida, meva-sabzavotlarni ishlatilishi, tashqi muhit omillariga ko'ra guruhlariga ajratish, ko'paytirish usullarini o'rganish; o'simliklarni o'sish va rivojlanish bosqichlarini meva-sabzavotlarni urug'lari hamda ko'chatlari tuzilishi; talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini hamda bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitida qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qildirishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Mevali ekinlar faniga kirish</p> <p>Mevali ekinlar faniga kirish — bu bog'dorchilikning asosiy qismlaridan biri bo'lib, meva beruvchi daraxtlar, butalar va ko'p yillik o'simliklarni o'rganish va yetishtirish bilan bog'liq. Mevali ekinlar — bu odamlar uchun oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadigan mevalarni hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklardir. Ular asosan daraxt, buta yoki yarim buta shaklida bo'ladi.</p> <p>Mevachilik fan va tarmoq sifatida. O'zbekiston Respublikasida meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishni xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Meva bog'larini davlatlararo va qit'alararo joylashganligi. Mevachilikning dunyo bo'yicha ahvoli. Mevachilikning O'zbekistondagi qisqacha ahvoli va rivojlanish istiqbollari.</p> <p>2-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi, botanik tarkibi va biologik xususiyatlari</p> <p>Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfo-biologik guruhlar. Urug'li, danakli, rezavor, yong'oqmevalar va subtropik mevalarning turlari va botanik nomlari. Meva va rezavor meva o'simliklarining er ustki qismi, hosilga kirishi va yashashiga ko'ra guruhlash.</p> <p>3-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarining tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi</p> <p>Meva o'simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bardoshligi, tolerantligi. Muhit sharoitini harorati, yorug'ligi, havo va tuproq namligini, biologik omillariga munosabati.</p> <p>4-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarini ko'paytirishning biologik asoslari va meva ko'chatlarini yetishtirishning intensiv texnologiyasi</p>			

8.	Fan/modul uchun ma'sullar: D.Sh.Nurmuxamedova – TDAU “Mevachilik va uzumchilik” kafedrası assistent A.J.Shokirov – TDAU “Sabzavotchilik va issiqxona xo'jaligini tashkil etish” kafedrası professori, q.x.f.d.
9.	Taqrizchilar: A.A.Qosimov – Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari q.x.f.f.d. dotsent M.A.Ochilov – ToshDAU, “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash” kafedrası mudiri q.x.f.f.d., dotsent

9.	Buriyev H.Ch., Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.Q., Muxamedov M.M. "Ochiq joyda sabzavot ekinlari etishtirishning progressiv texnologiyasi" darslik. – T.: «O'ZMEDIN», 2002.
10.	Ostonaqulov T. E., Zuyev V.I., Qodirxo'jaev O.Q. "Sabzavotchilik" darslik. – Toshkent, 2009.
11.	Beena Nair, Singh K.P., Prem Chand. Fundamentals of Vegetable Crop Production, 2014
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	Mirziyoyev Sh.M. PQ-4246-son "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori. – Toshkent, 2019 yil 20 mart.
2.	Mirziyoyev Sh.M. PQ-20-son "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori. – Toshkent, 2021 yil 23 noyabr.
3.	Mirziyoyev Sh.M. PQ-216-son "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori. – Toshkent, 2023 yil 07 iyul.
4.	Rajametov Sh., Normuratov I., Adilov X., Janakova D., Namozov I. "Meva, rezavor meva va tok ko'chatzorlarini tashkil etish" o'quv qo'llanma. Toshkent – 2018.
5.	Sultonov K.S., Abdikayumov Z.A. "Uzumchilik" darslik. – Toshkent, 2023.
6.	"O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat Reestri". Toshkent – 2023.
7.	Zuev V.I., Abdullaev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni etishtirish texnologiyasi. T., «O'zbekiston», 1997.
8.	Buriyev H.Ch. "Mevachilik" elektron darsligi. – Toshkent, 2003.
9.	Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jaev O.Q. "Sabzavotchilik" o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
10.	Zuyev V.I., Qodirxo'jaev O.Q., Adilov M.M., Akramov U.I. "Sabzavotchilik va polizchilik" o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016.
Axborot manbaalari	
1.	www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2.	www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3.	www.ziynet.uz - O'zbekiston Respublikasi elektron kutubxona milliy bazasi.
4.	https://drive.google.com/file/d/1TeLO2q33gM5ew7zcm1JJP_5Q3n4zpWXY/view
5.	https://www.carr.msu.edu/foundations-of-gardening/uploads/files/Final%20Syllabus%20with%20header-WEBSITE%20VERSION.pdf
6.	https://hos.ifas.ufl.edu/media/hosifasufledu/documents/pdf/syllabi/undergrad/Vegetable-Gardening-(Fall-F2F).pdf
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Kengashining 2025-yil <u>13</u> <u>avgust</u> dagi <u>13</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

<p>Meva va rezavor meva o'simliklarini jinsiy(urug'dan) va jinsiz (vegetativ) yo'l bilan ko'paytirish. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy qismlari. Meva daraxtlari uchun asosiy payvandaglar. Mevali ekinlar ko'chatini etishtirish usullari. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy qismlari. Ko'chatlarni etishtirish uchun joy tanlash.</p> <p>5-mavzu. Mevali bog' barpo qilish va meva ko'chatlarini o'tkazish</p> <p>Meva bog'i barpo qilish uchun joy tanlash va bog' maydonini tashkil qilish. Meva turlari va navlarini tanlash hamda tur va naviga qarab daraxtlarni joylashtirish usulini joriy qilish. Bog' meva daraxtlarini joylashtirish usullari va qator oralaridan foydalanish. Bog' uchastkasini rejalash. Bog'larni sug'orish, o'g'itlash va mulchalashning ahamiyati.</p> <p>6-mavzu. Bog' qator oralariga ishlov berish tizimi</p> <p>Bog'larda erga ishlov berish sistemasi. Bog' qator oralaridan foydalanish usullari. Qoplama ekinlar (sideratlar) haqida ma'lumot. Begona o'tlarga qarshi kurashishda gerbetsidlardan foydalanish. Bog'larni sug'orish va o'g'itlash usullari va me'yorlari.</p> <p>7-mavzu. Mevali daraxt va butalarni kesish</p> <p>Meva daraxtlari qishki va yozgi kesish mavsumida daraxtlarning ko'p shoxlarini kesish orqali keyingi yilda ko'plab yangi va yosh novdalar rivojlanadi, urug'li mevalilarda o'suvchi novdalar, danakli mevalilarda esa hosil beruvchi novdalar rivojlanadi, quyosh nurini daraxtning ichki tomoniga tushishi ta'minlash, novdalarini siyraklashtirish, uchki qismini qisqartirish ahamiyatli jihatlarni, hosildorlikni oshirish omillarini o'rganish.</p> <p>Meva daraxtlariga shakl berish va butashning ahamiyatli jihatlarni, hosildorlikni oshirish omillarini o'rganish. Meva daraxtlariga shakl berish usullari. Meva o'simliklarini butash davrlari va texnikasi. Palmetta daraxtlariga shakl berish.</p> <p>8-mavzu. Rezavor mevalarning agroteknik xususiyatlari</p> <p>Rezavor meva o'simliklarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Qulupnay, qulupnayzorni parvarish qilish, Malina, malinazorlar barpo qilish va Smarodina (Qorag'at)ni xalq xo'jaligidagi ahamiyati va istiqbollari. Rezavor mevali bog'larni tog'li zonalarda barpo qilish, bog'larni loyihalash va loyiha topshirig'ini tuzish. Bog' kvartallarining hajmi, shakli va joylashtirish reliefi, tashkiliy – iqtisodiy omillari, sug'orish tarmoqlarini joylashtirish, sug'orish texnikasi va himoyalash usullari. Terassalarda rezavor mevali ekinlarni joylashtirish.</p> <p>9-mavzu. Tog'li yerlarda mevachilik</p> <p>Tog'li yerlarda mevachilik. Tog'li va tog' oldi mintaqalarida iqlim, tuproq va relief sharoitlari. Tog' erlarda meva bog'i barpo qilish uchun tog' yerlarni qiyaligi hisobga olinadi va qiyalik 10-12°C oshsa albatta bog' barpo qilish zinapoyalar orqali amalga oshiriladi. Tog'li mintaqalarda meva ekinlarini ko'paytirish va bog'larini barpo qilish. Tog'li mintaqalarda meva ekinlarini qishki va erta bahorgi sovuqlardan asrash. Tog' va tog' oldi mintaqalarida meva ekinlarini hosilini parvarish qilish.</p> <p>10-mavzu. Tok ko'chatini yetishirish va tokzor barpo qilish</p> <p>Tok kchatlari ko'paytirish texnologiyasi va tokzorlar barpo qilish, Tokzor tuprg'ini saqlash, ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish va hosilini terish. Tok yashil qismlari bilan olib boriladigan ishlar. Aprobatyasi.</p> <p>11-mavzu. Tok o'simligini kesish va shakl berish</p>	
---	--

Tok o'simligini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini tartiba solish. Kesish qoidalarini, shakl berish va kesish muddati, usullari bilan tanishish. Tok kesish parvarishini yengillashtiradi, yorug'lik va issiqlikdan o'simlikning to'la foydalanishini ta'minlaydi, ildiz bilan yer ustki qismining o'zaro mutanosibligini tartibga soladi. Tokka tegishli shakl berish maqsadida o'tqazilgan yilidan boshlab xar yili kesiladi.

12-mavzu. Tokzorni o'g'itlash va sug'orish

Tokzorlarni mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirishning ahamiyati. Tokzorlarni sug'orish muddati, usuli bilan tanishish. O'simlikni suvga bo'lgan ehtiyojini aniqlash. Uzun etishtirish hududi turli xil xususiyatlari; o'simlikning holati; sug'orish texnologiyasi; sug'orish tizimlari bilan tanishish.

13-mavzu. Sabzavotchilik fanining maqsadi, ahamiyati. Sabzavotchilik sohasining bugungi kundagi holati va rivojlanish istiqbollari.

Sabzavotchilik fanining maqsadi va vazifalari. Sabzavotchilik sohasining bugungi kundagi holati va barqaror rivojlanirish istiqbolaaari. Respublikada sabzavotchilik rivojlanirish borasida olib borilayotgan islohatlar, qabul qilinayotgan farmon, qaror va qonunlar. Sabzavot ekinlarining turlari, ahamiyati, kimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.

14-mavzu. Sabzavot ekinlarining botanik-morfologik tasniflari, klassifikatsiyasi va biologik (harorat, namlik, yorug'lik, oziq moddalar va hok...)xususiyatlari

Sabzavotlarni botanik belgilariga ko'ra guruhlash, hayotini davomiyligi, kelib chiqish makonlari, tarqalishi, oziq-ovqatga ishlatilishi bo'yicha guruhlash. Sabzavotlar iste'mol qilinadigan qismi kimyoviy tarkibi ozuqalik ahamiyati. Sabzavot o'simliklarini botanik oilalarga ko'ra, bir-biridan farqlanishi. Biotik, abiotik va antropogen omillar. Sabzavot o'simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati bo'yicha guruhlariga bo'linishi, toleorantlik xususiyatlari, o'sish va rivojlanish bosqichlarini o'tishi davrida tashqi muhit ta'siri. Sabzavotlar o'stirishda tuproqdan oziq elementlarini o'zlashtirishda namlikni ahamiyati, havo tarkibidagi karbonat angidrid gaz miqdori, uni ko'paytirish usullari, sabzavotlar uchun etarli bo'ladigan me'yori. Tuproq, havo harorati va namligini o'simlikni o'sish va rivojlanishiga ta'siri.

15-mavzu. Issiqxona va himoyalangan qishloq xo'jaligi vazifalari.

Issiqxona – bu shisha, polikarbonat yoki plastikdan yasalgan yopiq inshoot bo'lib, ichki harorat, yorug'lik, namlik kabi omillar sun'iy ravishda boshqariladi. Ular sabzavotlar (pomidor, bodring, qalampir), ko'chatlar, gullar va boshqa o'simliklar yetishtirishda ishlatiladi. Yilning har qanday faslida hosil olish imkonini beradi. Samarali sug'orish, istish va yoritish tizimlari talab etiladi.

O'zbekistonda himoyalangan joy inshootlarini qisqacha tarixi, hozirgi ahvoli va rivojlanishi. Himoyalangan joy inshootlari ularni turlari, guruhlash va farqli xususiyatlari. Istifalangan er turlari va tuzilishi, parrniklarga tavsif va farqli xususiyatlari. Issiqxonalar vazifasi, ulardan foydalanish. Maydondan foydalanish usullari, rejalashtirish, ildizdan oziqlantirish, istish usullari va boshqa xususiyatlari bo'yicha ularni turlari. Gidropon issiqxonalar ularni tuzilishi. Plyonkali issiqxonalar turlari, afzalligi, kamchiligi va ulardan foydalanish.

	<ul style="list-style-type: none"> - meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirishda o'g'itlardan foydalanish, sug'orish tizimi, qator oralariga ishlov berish, parvarishlash hamda kasallik va zararkundalarga qarshi kurashish usullari; - meva-sabzavot va uzumchilik sohasidagi mahsus adabiyotlar, ilmiy ma'lumotlar, xoriyda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlar <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;(bilim)</i> - meva-sabzavotlarni yetishtirishda joyning iqlim sharoiti, tuprog'i, sizot suvini sathi, o'g'itlash miqdori, muddati, usuli, sug'orish tizimi, kasallik va zararkundalarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini amalga oshirishni; - meva-sabzavot o'simliklari organlarining tuzilishi, biologik xususiyatlari, yetishtirish texnologiyasi bosqichlari, tuproqqa ishlov berish, ekish, o'simliklarni tashqi muhit omillariga munosabatini aniqlay bilish va sozlash, sug'orish, oziqlantirish va yangi istiqbolli navlar va duragaylarni tanlash va joriy etish; - meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish xususiyatlari, ekish muddati va usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi;(ko'nikma)</i> - mevali bog'larni yaratish, rezavor mevalar va tokni ekish, ko'paytirish, yetishtirish va qator oralariga sabzavot ekinlarini ekish texnologiyasidan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.(malaka)</i>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys – stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kredirlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ribakov A. A., Ostroukova S. A. "O'zbekiston mevachiligi" o'quv qo'llanma. – Toshkent, 1981. 2. G'ulomov B.X., Sh.Abrorov, I.Normuratov. "Mevali daraxtlarga shakl berish, kesish va payvandlash" qo'llanma. – Toshkent, 2013. 3. Adilov X.A., Enileev N.Sh., Namozov I.Ch. "Mevachilik" amaliy mashg'ulot bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. 4. Ostanagulov T.E., Narziyeva S., G'ulomov B.X. "Mevachilik asoslari" o'quv qo'llanma. – Samarqand, 2011. 5. Temurov Sh. "Uzumchilik" darslik. – Toshkent, 2002. 6. Mark Rieger. Introduction to Fruit Crops, 2006 7. Viticulture (2nd Edition). Stephen Skelton MW, 2019 8. Azimov B.J., Bo'riev H.Ch., Azimov K.B. "Sabzavot ekinlari biologiyasi" darslik. – T.: «O'zMEDIN», 2001.

<p>16-mavzu. Himoyalangan yerlarda ko'chat va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalari.</p> <p>Himoyalangan yer - o'simliklarni tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan himoya qilgan holda yetishtirish. Unda maxsus qurilmalar (masalan, issiqxonalar, tunellar, agroplenka, panjaralar) orqali mikroiklim nazorat qilinadi, bu esa yil davomida hosil olish imkonini yaratadi. Ko'chat yetishtirishning ahamiyati, uni afzalligi va kamchiliklari. Ildamlilik va uni yetishtirish sharoitlarga bog'liqligi. Ko'chat yetishtirishda foydalaniladigan tuproq aralashmasi va uni tayyorlash. Urug'larni ekishga tayyorlash usullari.</p> <p>Himoyalangan joylarda sabzavotlarni etishtirishda asosiy hayotiy omillarni ta'minlash, tuproq aralashmasini tayyorlash, o'g'itlarni qo'llash va sabzavotlarni tuproqsiz sharoitda etishtirishni zamonaviy usullari, Himoyalangan joy maydonlaridan umumli foydalanish, ko'kat hamda turli sabzavot mahsulotlarni etishtirish texnologiyalari. Himoyalangan joylarda sabzavot etishtirishda harorat, namlik va yorug'likka talabi va ularni guruhlash. Haroratni asosiy me'yorlari: maqbul harorat, agronomik va biologik maksimum va minimum harorat chegaralari, haroratni ta'minlash va sozlash usullari. Himoyalangan joylarda pomidor va bodring etishtirish texnologiyasi.</p> <p>17-mavzu. Kartoshkani xalq xo'jaligidagi ahamiyati va yetishtirish agroteknologiyalari.</p> <p>Kartoshkani xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqish makoni, tarqalish tarixi, ishlab chiqarish va rivojlanishi. Kartoshkani botanik tavsifi, o'sish va rivojlanish xususiyatlari. Kartoshka o'simligining morfologik asoslari. Kartoshkani tashqi muhit omillariga munosabati. Kartoshka navlari. Ertagi va kechki kartoshka yetishtirish texnologiyasi. Shor'langan yerlarda kartoshka yetishtirish. Kartoshkadan eng erta hosil yetishtirish texnologiyasi. Ikki hosilli kartoshka yetishtirish texnologiyasi. Kartoshkani no'anaviy usulda yetishtirish texnologiyasi. Kartoshkani xorij texnologiyasi asosida yetishtirish. Kartoshkani pomidor va bodring sabzavotlar turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.</p> <p>18-mavzu. Tomatdosh sabzavotlar turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.</p> <p>Tomatdosh sabzavotlarni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Tomatdosh sabzavotlarni navlari tasnifi. Tomatdosh sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi. Tomatdosh sabzavotlarni ko'chatsiz urug'idan yetishtirish texnologiyasi. Tomatdosh sabzavotlarni takroriy muddatda yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>19-mavzu. Karamdosh sabzavotlar turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.</p> <p>Karamdosh sabzavotlar turlari, ahamiyati, biologik xususiyatlari. Oqboosh karam, gulkaram, brokkoli karami va hok... navlari, kimyoviy tarkibi, tashqi muhit omillariga munosabatlar.</p> <p>O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Kam tarqalgan karamdosh sabzavotlarni navlari tasnifi. Kam tarqalgan karamdosh sabzavotlarni introduksiyasi, ko'chatlarini tayyorlash, ertagi va kechki muddatlarda yetishtirish texnologiyalari.</p> <p>20-mavzu. Bodring va sabzavot qovoqchalarini ahamiyati va yetishtirish</p>	
---	--

<p>2. Bog'larda oldidan hosilni aniqlash usullari.</p> <p>3. Bog'larda sanitar kesish usullari va uni o'tkazish texnologiyasi.</p> <p>4. Danakli mevalarni yetishtirish va ularga shakl berish texnologiyasi.</p> <p>5. Meva ko'chatlariga shakl berish, ularni parvarish qilish.</p> <p>6. O'zbekistonda kam ekiladigan mevali ekinlarni ta'rifi.</p> <p>7. Olmani intensiv navlarini parvarish qilish texnologiyasi.</p> <p>8. Pal'metta bog'larini yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>9. O'zbekistonda yetishtiriladigan o'rikni navlariga tasnif berish.</p> <p>10. Anjir ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>11. Meva o'simliklarini turlari va ularni rivojlantirish</p> <p>12. Urug'lik payvandtaglarni yetishtirish</p> <p>13. Kurtak payvandtaglarni yetishtirish.</p> <p>14. Meva bog'larini tashkil qilish va parvarish qilish usullari.</p> <p>15. Urug'li mevali o'simliklardan olmani asosiy standart navlariga tavsif.</p> <p>16. Hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish.</p> <p>17. Ko'chatzorni birinchi va ikkinchi dalasida amalga oshiriladigan ishlar.</p> <p>18. Olmani kesish va butash texnologiyasi.</p> <p>19. Limonni issiqxonalarda yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>20. Mevachilikda yassi (pal'metta usulini yaratish yo'llari)</p> <p>21. Sabzavotlarni kelib chikish makonlari, tashqi muhit omillariga munosabati va ularni sozlash usullari</p> <p>22. Ertagi muddatda kartoshka etishtirish texnologiyasi</p> <p>23. Takroriy muddatda kartoshka etishtirish texnologiyasi</p> <p>24. Pomidor mexanizatsiyalashgan texnologiya asosida yetishtirish</p> <p>25. Baqlajonni jadallashgan texnologiya asosida yetishtirish</p> <p>26. Chuchuk qalampirni jadallashgan texnologiya asosida yetishtirish</p> <p>27. Bodringni mexanizatsiyalashgan texnologiya asosida yetishtirish</p> <p>28. Oqbooshi karamni mexanizatsiyalashgan texnologiya asosida yetishtirish</p> <p>29. Gulkaramni ertagi va takroriy ekinida yetishtirish texnologiyasi</p> <p>30. Brokkolini yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>31. Pekin karamini yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>32. Kolrabi yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>33. Sabzini to'qsonbosti ekin sifatida etishtirish texnologiyasi</p> <p>34. Osh lavlagini to'qsonbosti ekin sifatida etishtirish texnologiyasi</p> <p>35. Porey piyozini yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>36. Shalot piyozni yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>37. Ko'kat sabzavot o'simliklarini yetishtirish texnologiyasi</p> <p>38. Artishok o'simligini yetishtirish texnologiyasi</p> <p>39. Batat o'simligini yetishtirish texnologiyasi</p> <p>40. Ko'k no'xat o'simligini yetishtirish texnologiyasi</p> <p><i>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsifi etiladi.</i></p>	<p>3</p> <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy komponentlari:</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>- meva-sabzavot va uzum nav namunalarini sinash, ulardan foydalanish hamda yetishtirish jarayonlarini, mahsulotlarini yig'ib-terib olish bilan bog'liq tadbirlari;</p>
---	--

texnologiyasi.

Bodringni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Bodring navlari tasnifi. Bodringni yetishtirish texnologiyasi.

Kabachki va patissonni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Kabachki va patissonni navlari tasnifi. Kabachki va patissonni yetishtirish texnologiyasi.

21-mavzu. Ildizmevali sabzavotlar turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.

Ildizmevali sabzavotlardan sabzi, osh lavlagi, turp, sholg'om va boshqalarni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Ildizmevali sabzavotlar navlarini tasnifi. Ildizmevali sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi. Ildizmevali sabzavotlardan sabzi va osh lavlagini to'sonbosti muddatda yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

22-mavzu. Piyoqli sabzavotlar turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.

Piyoqli sabzavotlar turlari, ahamiyati botanik-morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, ko'paytirish usullari. Noan'anaviy piyoz turlarini introduksiya.

Respublikamiz sharoitida piyoz ekish muddatlari, Piyoz ekish uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash. Qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reestriga kiritilgan navlari tasnifi, ertagi, kechki, to'sonbosti muddatlarda yetishtirish texnologiyalari. Urug'idan va ko'chatidan yettirish xususiyatlari. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Piyoqli sabzavotlar navlarini tasnifi. Piyoqli sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi. Piyoqli ko'chatidan yetishtirish texnologiyasi. Toq'sonbosti muddatda piyoz yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

23-mavzu. Poliz ekinlari turlari, ahamiyati va yetishtirish texnologiyalari.

Poliz ekinlari turlari ahamiyati, kelib chiqish makonlari, tarqalishi. Qovun, tarvuz, qovoq mevalarning kimyoviy tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari. Qovun, tarvuz va qovoq o'simliklari botanik-morfologik tuzilishi, biologik (yorug'likka, issiqlikka, tuproq va havo namligiga talabi) xususiyatlari.

O'zbekistonning turli ekologik xududlarida rayonlashtirilgan poliz ekinlarining navlari, tasnifi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, Poliz ekinlarini ekish muddatlari va sxemalari, usullari. Ertagi -o'rtagi va kechki muddatlarda yetishtirish texnologiyalari o'ziga xos xususiyatlari. Kasallik va zararkundalarga qarshi kurash, oziqlantirish va sug'orish tartiboti. Poliz ekinlari hosilini yig'ishtirish, saqlash va qayta-ishlash usullari.

24-mavzu. Kam tarqalgan ko'kat va dukkakli sabzavotlar turlari, ahamiyati va introduksiya qilish.

Ko'kat sabzavotlarni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Ko'kat sabzavotlarni navlarini tasnifi. Ko'kat sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi.

Dukkakli sabzavotlarni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Dukkakli sabzavotlar

navlarini tasnifi. Dukkakli sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi.

Kam tarqalgan va introduksiya qilingan sabzavotlarni kelib chiqishi, tarqalish tarixi va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Kam tarqalgan va introduksiya qilingan sabzavotlar navlarini tasnifi. Kam tarqalgan va introduksiya qilingan sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Meva va rezavor meva o'simliklarini biologik-ho'jalik guruhlariga ajratish
2. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfologik tuzilishi
3. Meva o'simliklarini o'suvchi va hosil beruvchi navdalarining tuzilishi bilan tanishish
4. Meva o'simliklarini payvand qilish usullari
5. Meva ko'chatzorini tashkil etishda hisob-kitoblar
6. Mevali bog' barpo etish loyihasini tuzish bo'yicha hisob-kitoblar
7. Meva o'simliklarini parvarish qilishda sug'orish me'yorlarini hisoblash
8. Mevali bog'larni oziqlantirish uchun o'g'itlar miqdorini hisoblash
9. Mevali daraxtlarga shakl berish usullari bilan tanishish
10. Intensiv bog' barpo qilish loyihasini tuzish bo'yicha hisob-kitoblar
11. O'zbekistonda rayonlashtirilgan meva-uzum navlari tavsifi
12. Tokzor barpo qilish loyihasini tuzishda hisob-kitoblar
13. Sabzavot ekinlarining turlari, botanik oilalari va klassifikatsiyasi bilan tanishish.
14. Sabzavot ekinlarini urug'lari bilan tanishish, ularni mayda yirikligiga qarab guruhlariga ajratish.
15. Himoyalangan yer inshootlari turlari bilan tanishish
16. Himoyalangan joylarda sabzavot ko'chatlarini yetishtirish uchun talab etiladigan maydon va ashyolarni hisoblash.
17. Respublikamizda rayonlashtirilgan kartoshka navlari xo'jalik belgilari bo'yicha baholash, ekish sxemalari, usullari.
18. Tomtdosh sabzavotlar turlari, morfobiologik xususiyatlari, navlari tasnifi, ekish sxemalari va usullari.
19. Karamdosh sabzavotlar navlarining morfobiologik xususiyatlari, navlari tasnifi, ekish sxemalari va usullari.
20. Bodring va qovoqdosh sabzavotlarning morfologik xususiyatlari va navlarining xo'jalik belgilari bilan tanishish.
21. Ildizmevali sabzavotlar turlari morfo-biologik xususiyatlari, navlari tasnifi, ekish muddatlari, sxemalari va usullari.
22. Piyozli sabzavotlar navlarining morfobiologik xususiyatlari bilan tanishish
23. Poliz ekinlari turlari, morfologik tuzilishi, rayonlashgan navlari tasnifi, ekish muddatlari, sxemalari va usullari.
24. Kam tarqalgan, ko'kat va dukkakli sabzavotlar turlari, ahamiyati, noan'anaviy sabzavot ekinlari introduksiya.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qarigan bog'larni yoshartirish texnologiyasi.